XALQ DEPUTATLARI YUQORICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-81-10-145-K/25 Yuqorichirchiq tumani

Yuqori Chirchiq tumanining 2026-yiluchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to’g’risida”gi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori, Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 26- dekabrdagi 04/1124-sonli murojaat xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Yuqori Chirchiq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining “Toshkent viloyatining 2026-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Qarorga muvofiq, Yuqori Chirchiq tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **102 757 070,0ming.so‘m** va xarajatlari **102 757 070,0 ming.so‘m**ni tashkil qilgani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 309 125,0** ming**.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5.Quyidagilar:

qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 3-ilovaga;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffisiyentlar 4-ilovaga;

umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy Budjetlariga ajratmalar me’yori 5-ilovaga;

-2026-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 7-ilovaga;

-noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 8-ilovaga;

-qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 9-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6.Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Tastanbekov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Qoraboyev), tuman soliq inspeksiyasi (D.Yuldashev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7.Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8.Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Tastanbekov) hamda Kengashning Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (G.O‘tbasarova) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **ATEMOV USKENBAY XXX**

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tuman Budjeti daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**102 757 070,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	**2 539 470,0**
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	**615 850,0**
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	**6 577 750,0**
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	**10 666 440,0**
5	Aksiz solig‘i jami	**1 846 410,0**
	shu jumladan:	
	-yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gazni realizasiya qilishdan aksiz solig‘i	**1 846 410,0**
6	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	**10 595 000,0**
7	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	**2 162 400,0**
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**3 960 100,0**
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	**13 528 000,0**
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	**7 429 000,0**

	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	**-2 971 600,0**
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	**14 207 000,0**
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**30 746 000,0**
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	**188 000,0**
13	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	**3 031 000,0**
14	Davlat boji	**590 100,0**
15	Yig‘imlar	**135 450,0**
16	Jarimalar	**1 367 700,0**

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani bo‘yicha mahalliy Budjet harajatlarining reja ko‘rsatkichlari

1	**Madaniyat va ommaviy axborot vositalari bo‘limi**	**5 330 355**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 330 355
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Sport bo‘limi**	**6 485 955**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 485 955
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**19 138 721**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 138 721
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**23 286 282**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 752 482
	"Mening maktabim"	2 533 800
5	**Suv xo‘jaligi bo‘limi**	**2 609 189**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 609 189**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

6	**Qishloq xo‘jaligi**	**2 781 336**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 781 336
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	**3 970 115**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 970 115
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 880 709**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 880 709**
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakasizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	
	shahar va tumanlar budjetlari tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh bo‘limi**	**1 503 475**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 503 475**
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Tuman hokimligi**	**34 958 683**
	shu jumladan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	**18 834 132**
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 105 278
	Zahira jamg‘armasi	1 309 125

11	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**812 250**
	shu jumladan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	**0**
	Axborot-kutubxona markazlari	812 250

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida jismoniy va yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkalari 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	MFYlar nomi	Turar	Noturar
1	Guliston MFY	0,98	0,98
2	Buloq boshi MFY	0,95	0,95
3	Birlik MFY	1,20	1,20
4	Baxor MFY	1,20	1,20
5	Baliqchi MFY	1,20	1,20
6	A.Yassaviy MFY	1,10	1,10
7	Navoiy MFY	0,98	0,98
8	Navruz MFY	1,20	1,20
9	Nurafshon MFY	1,20	1,20
10	Nurli Zamin MFY	1,20	1,20
11	Nurli yo‘l MFY	0,95	0,95
12	Timofey Grigorevich Xvan MFY	1,20	1,20
13	Gulobod MFY	0,95	0,95
14	Markaziy MFY	1,00	1,00
15	Jaloltepa MFY	0,95	0,95
16	Jumabozor MFY	1,20	1,20

17	Istiqbol MFY	1,20	1,20
18	Ittifoq MFY	1,20	1,20
19	Kavardan MFY	1,00	1,00
20	Qangli MFY	0,95	0,95
21	Qizilsoy MFY	1,00	1,00
22	Qorasuv MFY	1,20	1,20
23	Qo‘rsoy MFY	0,95	0,95
24	Obodon MFY	1,10	1,10
25	Ma‘rifat MFY	1,20	1,20
26	Darxan MFY	1,00	1,00
27	Saksonota MFY	1,10	1,10
28	Taraqqiyot MFY	1,10	1,10
29	Iyk ota MFY	1,20	1,20
30	Tinchlik MFY	1,20	1,20
31	Sahovat MFY	1,10	1,10
32	Navbahor MFY	1,10	1,10
33	Yashnabod MFY	1,20	1,20
34	Mirobod MFY	1,20	1,20
35	Yangi xayot MFY	1,10	1,10
36	Chumchuqjar MFY	1,10	1,10
37	Oq-ovul MFY	1,10	1,10
38	Toshto‘g‘izoq MFY	1,10	1,10
39	O‘zbekiston MFY	1,20	1,20
40	Fayzobod MFY	1,20	1,20

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffisiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’yektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlari
1	Yuqorichirchiq tumani	1,10	1,10	1,15	1,10	1,00

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy Budjetlariga ajratmalar me'yori

Hududlar nomi			**Yuqorichirchiq tumani**
QQS	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	4%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	28%
		DSB	25%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	28%
		DSB	23%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Foyda solig'i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	32%
		DSB	29%
Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	5%
		DSB	5%
Pivo	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	5%
		DSB	5%
benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	100%
		DSB	97%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	10%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	100%
		DSB	90%

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	10%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	100%
		DSB	90%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
	Viloyatning viloyat budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%
	Viloyatning viloyat budjetiga		95%
Davlat boji	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%
	Viloyatning viloyat budjetiga		95%
Jarima	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%
	Viloyatning viloyat budjetiga		96%
Yig‘imlar	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%
	Viloyatning viloyat budjetiga		95%

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

№	Xudud bo‘yicha	2026-Yil
1	Yuqori Chirchiq tuman	471 148

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar (qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
Yuqorichirchiq tumani	1,15	1,20	1,20	1,20	1,15	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
Yuqori chirchiq tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,35

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-81-10-145-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
Yuqorichirchiq tumani	1,10	1,00